
2-sektor hududidagi mahallalarda ichimlik suvi tarmog'i torilmoqda

* Mamlakatimizda qishloqlar va shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, xalqimizning hech kimdan kam bo'lmagan holda hayot kechirishini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

🔧 Islohotlar natijasida qishloq joylarda ko'plab zamonaviy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis korxonalari, ta'lim va tibbiyot muassasalari bunyod etilmoqda. Kommunikasiya tarmoqlari bugungi kun talablari darajasida yangilanmoqda. Bu esa aholi turmush darajasining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

□ Xususan, "Polvonobod", "Yoshlik", "Uch ariq" mahallalari fuqarolari tomonidan ichimlik suvi tarmog'i tortish yuzasidan murojaat qilingan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-sonli Qaroriga muvofiq, ushbu mahallalarda ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari davom etmoqda.

2023-03-09 06:20:25